

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA OILAVIY AJRALISHLAR MUAMMOSINING O‘RGANILGANLIK DARAJASI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-465-467>

Shaxodat Qurbonova
QarshiDU mustaqil tadqiqotchisi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorij psixologiyasida oilaviy ajralishlar muammosining o‘rganilganlik darajasi, oila-nikoh munosabatlari rivojlanishi, nikohning buzilishi, nikohdan tashqari jinsiy aloqa, nikohsiz tug‘ilish, nikohga kirmaslik kabi qator noxush hodisalar, oilalarning nuklearlashuvi masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: xorij psixologiyasi, oilaviy ajralishlar, oila-nikoh munosabatlari, nikohning buzilishi, nikohdan tashqari aloqa, nikohsiz tug‘ilish, nikohga kirmaslik.

Аннотация. В данной статье рассматривается уровень изучения проблемы расторжения семей в зарубежной психологии, развития семейно-брачных отношений, распада брака, внебрачных связей, внебрачных рождений, небрачных отношений и ряда неприятных явлений, таких как нуклеаризация семей.

Ключевые слова: зарубежная психология, расторжение семей, семейно-брачные отношения, распад брака, внебрачные связи, внебрачные рождения, небрачные отношения.

Abstract. This article examines the level of study of the problem of family separations in foreign psychology, the development of family-marital relations, the breakdown of marriage, extramarital sex, births out of wedlock, non-marriage, and a number of unpleasant phenomena, such as nuclearization of families.

Keywords: foreign psychology, family separations, family-marriage relations, breakdown of marriage, extramarital sex, births out of wedlock, non-marriage.

Hozirgi davrda ro‘y berayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy o‘zgarishlar, jumladan, fan-texnika taraqqiyoti, odamlarda ma‘lumotlilik darajasining o‘sishi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlariga tobora ko‘proq jalb qilinishi va xalq xo‘jaligining turli jabhalarida faol ishtirok etishi, ijtimoiy faolligi oshishi, umuman, kishilik jamiyatining rivojlanishi, ayni vaqtda, oila-nikoh munosabatlari xususiyatiga o‘zining sezilarli ta‘sirini ko‘rsatdi. Keyingi yillarda barcha rivojlangan mamlakatlarda oila-nikoh munosabatlari rivojlanishida ayrim ko‘ngilsiz hodisalar: tug‘ilishning kamayishi, ajralishlar sonining ko‘payishi, uning salbiy oqibatlarining kishilar hayotiga ta‘siri ortishi, oilalarning nuklearlashuvi (nuklear – er-xotin va bolalardan iborat bo‘lgan oila), noto‘liq oilalarning ko‘payib borayotganligi kuzatilmoqda. Shuning uchun hozirgi davrda oila mustahkamligi muhim ijtimoiy-psixologiya muammo sifatida keng ilmiy-ijtimoiy jamoatchilik diqqatini o‘ziga tortmoqda.

Ijtimoiy psixologiyada nikohning buzilishi tufayli yuzaga keladigan salbiy oqibatlar hamisha dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelgan, shu sababli mazkur muammoga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilgan hamda ilmiy ishlar

chop etilgan. O'tkazilgan tadqiqotlarda ajralishning kelib chiqish sabablari, motivlari, asoratlari, ijtimoiy-psixologiya xususiyatlari, sobiq er-xotinlarga, ularning farzandlari ruhiyatiga ta'siri masalalari muayyan darajada yoritib berilgan.

Oilaviy ajralish masalasi bilan sotsiologlar, demograflar, etnograflar, tarixchilar, huquqshunoslar, tibbiyot xodimlari, pedagoglar va psixologlar shug'ullanib kelmoqdalar. Keyingi yillarda oilaviy munosabatlar masalasiga bag'ishlangan turli ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar tashkil qilinmoqda.

Chet ellarda oila muammolarini tadqiq etishning keng yo'lga qo'yilishi o'zining ma'lum bir tarixiga ega. Oila va oilaviy munosabatlarning turli yo'nalishlarini o'rganishga bag'ishlab o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari bo'yicha bir qancha salmoqli ilmiy materiallar chop etilgan. Oila-nikoh muammosini o'rganishga taalluqli bir qator ilmiy ishlar mavjud bo'lib, ularda oilaviy hayotning qariyb barcha asosiy tomonlari ilmiy jihatdan tekshirilgan. Biroq oila-nikoh muammolari bo'yicha tadqiqot ishlari qanchalik keng miqyosda olib borilishiga qaramay, uning yetarli darajada tadqiq etilmagan tomonlari ham ko'p. Bular qatoriga ajralishning oqibatlari, ularning oldini olish masalalarini kiritish mumkin. Ma'lumki, hozirgi vaqtda dunyoda ajralishlar soni yildan yilga o'sib boryapti, namoyon bo'layotgan salbiy asoratlar esa juda og'ir bo'lib, ularning oldini olish, salbiy oqibatlarini kamaytirish, jiddiy ijtimoiy-psixologiya muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Birinchi bo'lib eramizdan oldingi XVIII asrda hukmronlik qilgan vavilonlik podsho Xammurapi davrida ajralish va ajralishga olib keluvchi sabablar qonunlashtirilgan, ajralishning huquqiy me'yorlari o'sha zamon talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, asosan, ajralish ajrimi erkaklar ixtiyorida bo'lgan, ayollar faqat “tomoshabin” bo'lganlar, xolos. Oradan to'rt ming yildan ortiq vaqt o'tgan bo'lsa ham, ajralish va uning oqibatlari sharoiti birmuncha o'zgargan, xolos. Masalan, Belgiya davlatining qonunida (1958) xotin erining xiyonati tufayli ajralishni talab qila olmaydi, er esa xotinining xiyonati uchun jinoiy ish qo'zg'atishi mumkin. Shveysariyada sud ajralishganlarga ikki yilgacha, agar bir-biriga xiyonat qilgan bo'lsa, uch yilgacha yangi oila qurishga ruxsat bermaydi. Bolgariyada gunohkor, “jabrlanuvchiga” aliment to'laydi. Angliyada esa xiyonat qilgan kishidan katta miqdorda jarima undiriladi [168. 279-308 b.].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ajralishlarning sabablari, omillari va asoratlarini ilmiy o'rganmasdan turib, qonunlar ishlab chiqish va ularga amal qilish u yoki bu jins hayoti va taqdirini butunlay o'zgartirib yuborishi mumkin. Shuning uchun oila-nikoh munosabatlarini, nizolarni, ajralish vaqtida va ajralishdan so'ng erkak-ayollar, ularning bolalari hamda oilaning yaqin kishilari hayotini, ruhiyatini o'rganish jiddiy ijtimoiy-psixologiya muammo hisoblanadi. Chunki ajralishni qonun yo'li bilan taqiqlash, ajraluvchilarga har xil talablar qo'yish, jarimalar solish hamda ijtimoiy qoralash kabi an'anaviy, huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy chora va tadbirlar orqali uni bartaraf etish va shu kabi yo'llar bilan oila-nikoh munosabatlarining mustahkamlanishiga erishib bo'lmaydi. Bunga ajralish qonun yo'li bilan taqiqlangan yagona davlat – Niderlandiyada ham bunday qonun 1987-

yilda bekor qilinganligini dalil qilib olishimiz mumkin. Chunki oilalar butligini (to'kisligini) saqlab qolish maqsadida joriy etilgan bunday qonun tufayli aholi o'rtasida oila qurish yoshining kechikishi, nikohdan tashqari jinsiy aloqa, nikohsiz tug'ilish, nikohga kirmaslik kabi qator noxush hodisalar miqdori ortishi kuzatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lutfulloyevna, K. L. (2025). XORIJ PSIXOLOGIIYASIDA MOTIV VA MOTIVATSIYA MUAMMOSI. *Global Science Review*, 3(6), 341-347.
2. Baxtiyarovna, B. Z. (2024). SHAXSDA STRESS HOLATI YUZ BERISHINING XORIJ PSIXOLOGIIYASIDA O 'RGANILGANLIK TAHLILI. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(34), 19-23.
3. Xolmatov, M. (2024). XORIJIY TADQIQOTLARDA NIZOLI XULQ ATVORNI TADQIQ ETISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Nordic_Press*, 3(0003).